

**“O‘ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O‘RNI, CHEGARALARI” MAVZUSIDA
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR-KLASTER METODI VA KOMPYUTER
DASTURLARINING TADBIQ QILISHNING SAMARADORLIGI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7883886>

Rustamova Maftuna Anvarjon qizi

UrDU akademik litseyi geografiya fani o‘qituvchisi

Atabayeva Mavjuda Rustamovna

UrDU akademik litseyi Oliy toifali Geografiya fani o‘qituvchisi

Geografiya fani juda qiziqarli fandır, chunki dunyo go‘zalliklari, mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati, dunyo aholisi urf odatlarini tabiatni geografiya fani kabi tabiiy va ijtimoiy jabhalarda o‘rganadigan fanning o‘zi yoq.

Pedagogik texnologiya bu- ta‘lim jarayoniga yangi metod kiritgan holda o‘quvchi bilan ishlashni tashkil qilish, xususan o‘quvchini o‘z ustida ishlashga undash, dars jarayonidagi bahs-munozarali vaziyatda erkin va tanqidiy fikrlashga chorlovchi o‘ziga xos muhitni yaratishdir. Bunda interfaol metodlar juda katta yordam beradi, bularga klaster, venn diagrammasi, baliq skeleti kabilar kiradi. Klaster metodi deganda – ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida bo‘lgan ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi o‘qitish jarayoni davomida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayonda ta‘lim oluvchilar o‘qib-o‘rganishni yuqori darajada bo‘lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirishda tashabbuskorligi va mas‘uliyat, qo‘llab-quvvatlash amalda bajarish orqali fikr-mulohazalar qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘qitish jarayonida klaster metodlardan foydalanish o‘ziga hos hususiyatga ega. Ta‘lim amaliyotida foydalanilayotgan klaster metodi o‘quvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Klaster metodi orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari, ijodkorligini va faolligi nazariy va amaliy mu‘ammolarga bo‘lgan qarashlari rivojlanadi.

«Klaster» metodini o‘tkazish tehnologiyasini amalga oshirishda- o‘quvchi nimani o‘ylagan bo‘lsa, shuni qog‘ozga yozadi. U o‘z fikrlarining sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boradi. Yozuvining orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermaydi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to‘xtamaydi. Agar o‘quvchi ma‘lum muddat biror-bir g‘oyani o‘ylay olmasa, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlaydi. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilgunicha davom ettiradi. Ma‘lum bir tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiladi. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatish cheklanmaydi.

«Klaster» metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Klaster inglizcha so'z bo'lib (kluster) – bir butun holatda ma'lum mavzu bo'yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklini namoyon etadi.

Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichida yoziladi. Masalan yangi mavzu pedagogik qobiliyatlar bo'lsa o'quvchilar u haqida ko'z oldiga kelgan fikrlarni yozish taklif etiladi. Bunda o'quvchilar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi. Bu fikrlarni doskada bo'r yoki plakatda flomasterlar bilan yozish mumkin

O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishda klaster metodi orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga erishish mumkin, bunda dars jarayonida o'quvchilarni guruhlarga bo'lib topshiriqlar ketma-ketligida yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilgan holda darsni tashkil qilish kerak bo'ladi, ya'ni quyidagicha:

«O'zbekiston tabiiy geografiyasi» fanidan kartada ishlash bilan bog'liq amaliy mashg'ulot texnologik kartasini, darsga joriy etilgan interfaol metodlardan foydalanish metodikasini keltiramiz.

Mashg'ulotning borishi: 1-bosqich: Tayyorgarlik (5 daqiqa). Tashkiliy qism: salomlashuv, davomat, o'quvchi diqqatini jamlab olishi.

2-bosqich: Kompyuter bilan ishlash (5 daqiqa). Kompyuter va EO'MT dan ushbu ishdagi 3-ilovadan tartib bo'yicha foydalaniladi.

3-bosqich: Amaliy mashg'ulot vazifasini aniqlash (interfaol metodlar asosida) (10 daqiqa). Kompyuter ish stolida «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» fanidan tayyorlangan EO'MT yuklanadi, «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» elektron qo'llanma sahifasi ochiladi.

«O'zbekiston geografiyasi fani amaliy topshiriqlar» oynachasiga sichqonchani olib borib bosilganda, mashg'ulot mavzusi ro'yxati paydo bo'ladi.



1-rasm. Amaliy topshiriqlar ro'yxati oynasi

Mavzular ro'yxatidan «O'zbekistonning davlat chegaralari» mavzusi tanlanadi. O'quvchilar amaliy mashg'ulot vazifalari bilan tanishib chiqadilar.



2-rasm. Amaliy topshiriq vazifalar oynasi

Shundan so'ng, EO'MTning uskunalar panelidagi «Metodika» bo'limidan «Ko'rgazmali materiallar» qismiga kirib «Kartalar» oynachasi ochiladi. Xaritalar ichidan mavzuga tegishli bo'lganini tanlaydi.



3-rasm. Kartalar oynasi

Kompyuter ekranida Yevroosiyo materigining kartasi paydo bo'ladi, unda O'zbekistonning geografik o'rni ham ko'rsatilgan. O'quvchi bu karta bilan tanishib chiqadi va o'ziga kerak bo'lgan ma'lumotlarni amaliy ish daftariga yozib oladi. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi, guruhlariga vazifalar tarqatadi, qo'yilgan vazifa guruhlarida bajarilishi kerakligini ta'kidlaydi, muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul echimni aniqlashga muayyan vaqt belgilaydi.

4-bosqich: Yakka holda ishlash (20 daqiqa). Yangi mavzu o'quvchilarga mustaqil tayyorlanishlari uchun kompyuterdagi EO'MTda beriladi. Har bir o'quvchi bilimi, qiziqish qobiliyatiga qarab o'z guruhiga berilgan vazifani EO'MTning keng imkoniyatlaridan foydalangan holda mustaqil, ijodiy yondashib amaliy ishni bajaradi. O'quvchi EO'MTning uskunalar panelidagi «Metodika» bo'limidan «Ko'rgazmali materiallar» qismiga kirib «Kartalar» gipermurojaatiga murojaat qilib, O'zbekistonning

siyosiy kartasini ochadi. O'quvchi bu xarita bilan ham tanishib chiqadi va o'ziga kerak bo'lgan ma'lumotlarni konspekt qilib oladi.

5-bosqich: (20 daqiqa). O'quvchi barcha kerakli ma'lumotlar majmuasiga ega bo'lgandan so'ng, yozuvsiz karta bilan ishlashni boshlaydi.

6-bosqich: 1-vazifa – O'zbekistonning chekka, ya'ni shimoliy, janubiy, g'arbiy va sharqiy nuqtalarini o'rnini aniqlash va ularni yozuvsiz kartada belgilab qo'yish.

7-bosqich: 2-vazifa – O'zbekistonning shimoliy, janubiy, g'arbiy va sharqiy nuqtalari koordinatalarni aniqlash va yozuvsiz kartaga yozib olish.

8-bosqich: 3-vazifa – geografik kordinatalar, chekka nuqtalar orasidagi masofalarni kompyuter ekranida chiqib turgan kartadan masshtab yordamida o'lchanadi, kilometrlarga aylantiriladi va haqiqiy masofa aniqlanadi.


9-bosqich. 4-vazifa – davlat chegaralari o'tgan geografik ob'ektlar nomi aniqlanadi va yozuvsiz kartaga yozib olinadi.

10-bosqich: Jamoa bo'lib hamkorlikda ishlash (20 daqiqa). O'quvchilar mustaqil to'plagan ma'lumotlarini jamoa bo'lib hamkorlikda muhokama qiladilar va umumiy prezentatsiya – taqdimot tayyorlaydilar. Kompyuter yordamida amaliy mashg'ulotlar bajarishning ijobiy tomoni o'quvchi, hech kimga xalaqit bermagan va o'qituvchini bo'sh vaqtini kutmagan holda ijodiy izlanadi, zarur bo'lsa, o'z ustida mustaqil ravishda qayta-qayta ishlash imkoniga ega bo'ladi.


Bunda ayniqsa interfaol metodlardan foydalaniladi, "klaster" metodidan foydalanib fikrlarni tanqidiy o'rganib tahlil qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

Klasterni tuzish qoidalar

1. Topshiriqni diqqat bilan o'qib chiqing.
2. Fikrlarni tarmoqlantirish jarayonida paydo bo'lgan har bir fikrni yozing.
3. Imlo xatolar va boshqa jihatlarga e'tibor bermang.
4. Belgilangan vaqt tugamaguncha yozishni to'xtatmang, fikringizni jamlashga harakat qiling.
5. Fikrlarni chegaralamang, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlikka e'tibor qarating.




Topshiriq:klastermi darslik matnidan foydalanib to'ldiring.



Venn diagrammasini to'ldirish qoidasi:

- 1.Ma'lumotlarni doiraning kesishmaydigan tomonlariga yozib chiqing.
- 2.Doiraning kesishgan joyiga har ikki tomondagi ma'lumotlarning umumiy bo'lgan jihatlar nomerini yozing.

VENN DIAGRAMMASI



Uyga vazifa: O'zbekistonning siyosiy-ma'muriy kartasini chizish, atama va tushunchalarni klaster tizimiga solish va yodlash.

Mana shunday tarzda dars yakunlanadi va albatta o'quvchi keyingi darsni intizorlik bilan kutadi, uyga berilgan vazifalarni qunt bilan o'rganadi. Agar bunday metodlardan foydalanilsa albatta darsdan kutilayotgan natijaga erishish va o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantira olishimiz mumkin.